



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.2 № 4**

**2025**

## ISAJON SULTON IJODIDA ZONIMLAR

**Jo'rayeva Surayyo Tolibjonovna,**

*Samarqand davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti,*

**Yuldosheva Saodat Azizovna,**

*Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti*

**Annotatsiya.** Adabiyot yaratilibdiki, adabiy obrazlar bilan yonma-yon hayvon obrazlari ham birgalikda asarlar tarkibida yashab kelmoqda. Bunday asarlarda bo'ri, it, toshbaqa va boshqa hayvonlar turlicha talqin etiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalariga nazar tashlasak, bo'ri baxt keltiruvchi timsol sifatida tasvirlansa, ertaklarda qonxo'rlik ramzi sifatida keltiriladi. It obrazi ham bugungi kunga qadar juda ko'plab asarlar tarkibida turli janrlarda turlicha talqin etiladi. Ham nasr, ham nazmda keng qo'llanilib kelinayotgan bunday obrazlar tasviridan Isajon Sulton ham unumli foydalanib kelmoqda. Maqolada Isajon Sulton asarlarida hayvonlarning tutgan o'rni, qo'llanilishi va ular orqali ifodalangan ma'nolar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** modernizm, postmodernizm, nasr, hikoya, obraz, ramziylik, individual uslub, badiiy mahorat.

## ЗООНИМЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ИСАДЖОНА СУЛТОНА

**Жураева Сурайё Толибжоновна**

*Самаркандский государственный педагогический институт, магистрант 2 курса*

**Юлдошева Саодат Азизовна**

*Самаркандский государственный педагогический институт, доцент*

**Аннотация.** С тех пор как существует литература, образы животных живут в произведениях бок о бок с литературными персонажами. В таких произведениях волк, собака, черепаха и другие животные интерпретируются по-разному. Если обратить внимание на образцы фольклора, волк описывается как символ, приносящий счастье, в то время как в сказках он предстает воплощением кровожадности. Образ собаки по сей день также трактуется по-разному в многочисленных произведениях различных жанров. Исajон Султон эффективно использует изображения таких образов, широко применяемых как в прозе, так и в поэзии. В статье рассматриваются роль и использование образов животных в произведениях Исajона Султона, а также смыслы, выраженные через них.

**Ключевые слова:** модернизм, постмодернизм, проза, рассказ, образ, символизм, индивидуальный стиль, художественное мастерство.

## ZOONYMS IN ISAJON SULTON'S WORKS

**Jo'rayeva Surayyo Tolibjonovna**

*Samarkand State Pedagogical Institute, 2nd-year Master's student*

**Yuldosheva Saodat Azizovna**

*Samarkand State Pedagogical Institute, Associate Professor*

**Abstract.** Since the inception of literature, animal imagery has coexisted alongside literary characters within creative works. In such writings, animals like the wolf, dog, tortoise, and others are interpreted in various ways. While folklore often depicts the wolf as a symbol of good fortune, in fairy tales, it is frequently presented as an embodiment of bloodthirstiness.

Similarly, the image of the dog has been interpreted through diverse lenses across numerous genres to this day. Isajon Sulton effectively utilizes these images, which are widely employed in both prose and poetry. This article discusses the role and application of animal imagery in Isajon Sulton's works, as well as the meanings expressed through them.

**Keywords:** modernism, postmodernism, prose, short story, image, symbolism, individual style, artistic skill.

Adabiyotida qadimdan asarlar yaratilibdiki, ular tarkibida insonlar bilan yonma-yon hayvon obrazlariga murojaat etilgan. Hayvonat dunyosiga murojaat xalq og'zaki ijod namunalari ham ko'zga tashlanadi. "Ayyor tulki", "Bo'ri va qo'y", "Sher va sichqon" – bu ertaklar bolalarni yaxshilikka undaydi. Insonlar xarakterini hayvonlar orqali tushuntiriladi. G'arb adabiyotida ham qadimdan hayvonlar orqali obrazlar yaratilgan. Ezop ijodiga nazar tashlasak yetarli.

U yozgan masallarning barchasida bosh qahramon hayvonlar bo'lib, ular orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlar talqin etilgan. Birgina "Ustiga tuz ortilgan eshak" masalini olsak, "og'irning ostidan, yengilning ustidan o'tma" degan xulosani beradi. Ushbu masalda hayotda ayrimlar ishlatgan nayranglar, o'zlarining boshiga yetar ekan [n.ziyouz.com]. Muvaffaqiyatga erishish uchun mashaqqatli yo'ldan emas, yengil-yelpi yo'lni ko'zlaydigan kishilar tanqid qilingan. Bu mavzu, oradan qancha asrlar o'tsa ham bugungi kun uchun dolzarb masalalardan biridir. O'zbek adabiyotida ham qadimdan bunday asarlar yaratilgan. Nosruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" [2], Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", [3] Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" [4], Gulxaniyning "Zarbulmasal" [5] asarlari ham aynan shunday yo'nalishda yozilgan. Jahon adabiyotida Jorj Oruelning "Molxona" asari yangicha talqinda siyosiy tuzumni ko'rsatish uchun hayvonlar obrazlaridan mohirona foydalangan yangicha romandir [6]. Ammo adabiyot yashar ekan, an'anaviy va modern yo'nalishda asarlar yaratilaveradi. Bugungi kunda ham asarlarida hayvonlarni yaqin do'st yoki ramziy obrazlarda tasvirlash bilan birga yangicha talqindagi asarlar ham yaratilmoqda. Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi", [7] Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" [8] hikoyalarida an'anaviylik ruhi yetakchilik qilsa, Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", "Bahoviddinning iti" [9] asarlari modern yo'nalishda yaratilganligi bilan ajralib turadi. Serqirra ijodkor Isajon Sultonning "Otamga nimadir bo'ldi", "Bo'ri" [10] hikoyalarida an'anaviylik unsurlari kuzatilsa, "Qismat" [11], "Ot yo'li, somon parchasi va toshbaqa", "Kichkina pushtirang maxluqcha" [12] hikoyalari modern yo'nalishda yaratilgandir. Yozuvchining "Otamga nimadir bo'ldi" hikoyasida yosh bolaning otasini o'zga yurtlarga ishlashga ketishidan havotirlari, otasi ketsa uyidan baraka ketishi hayvonlar orqali jonlantirilgan. Otam o'sha olisdagi o'lka haqida gapirib berdi. U yoqlarda rosa qorlar yog'ar ekan. Oq ayiqlar bo'kirib yurarmish... Ayiqlar yoqqan qor tufayli oq bo'lsa, unda devlariyam oqdir. Bu jummalarda bola otasining o'zga yurtlarda yurar ekan, qiynalib qolmasmikan degan qo'rquvini ifodalash uchun yozuvchi devlar haqida so'z yuritgan. Chunki otasining tizzasiga endi bo'yi yetgan bola uchun eng qorqinchli narsa dev, albatta. Ammo otasi uydan ketsa baraka ham ketishini bola tilidan an'anaviy tarzda quydagicha tasvirlagan. Tush ko'ribman. Sigirimizning biri och, biri to'qmish. Och sigirimiz to'q sigirimizni yer emish. Uyimizdan otlar chiqib ketayotganmish, hammasi baland bo'yi, yollari hilpiragan, ammo egarlari bo'm-bo'sh otlar... [n.ziyouz.com].

Bilamizki, o'zbek oilalarida oilaning ustuni otadir, ota uydan ketar ekan bola uchun hamma narsa ketadigandek, uy huvillab qoladi deb o'ylaydi. Shu o'ylarni o'ylayverganidan uxlab qoladi, tushida esa bu manzarani ko'radi. Adabiyotimizda bugugi kunga qadar ko'plab asarlar tarkibida tush tasviridan foydalanadi. Bu tush keyingi voqealar ketma-ketligi haqida ishora beradi. "Alpomish", "Kuntug'mush", "Go'ro'g'li" [13] dostonlarida ham kitobxonga voqealar bayonini yana ham tushunarli tarzda yetkazish maqsadida tush tasviridan unumli foydalangan o'rinlar kuzatiladi. Isajon Sultonning "Otamga nimadir bo'ldi" hikoyasida ham

shu an'anaviylikdan foydalangan. Hikoya davomida asar qahramoni bolaning it bilan do'st bo'lishining o'ziga xos yuki bor. Bolaning it bilan suhbatlashishi orqali qo'rquvlarini, otasi haqidagi o'ylarini yorqinroq, yana ham jonliroq ko'rsatishga erishgan. Diqqatimizni birgina monologga qaratamiz. Bir kecha Bo'ynoq dunyoni buzganday bo'lib g'ingshib chiqdi, bo'shatsam, yer timdalab g'ingshshiyverdi. Otamni izini iskab tomorqalarni aylanib qur chopib chiqar, darvoza oldiga borib ko'chaga, dala-tuzga mo'ralar, qaytib kelib, shimimdan tishlab tortaveradi sho'rlik [10: n.ziyouz.com]. Hikoya qahramoni otasini shunchalik sog'inganki, itining bezovtala-nishi bolaga otasini izlayotgandek tuyulaveradi. Shu sababli bola otasini izlab, Bo'ynoq bilan birgalikda yo'lga tushadi. Axir ko'plab asarlarda ham insonning do'sti hayvonlardan sodiq itidir. Buni yuqorida aytganimizdek "Qorako'z Majnun" asarida ham ko'rishimiz mumkin [8]. Ijodkor yana an'anaviy yo'nalishdagi hikoyalarida bo'ri obraziga murojaat qiladi. Adabiyotda aksaryat asarlarda bo'ri qonxo'r, yovuz, yirtqich kabi jihatlarini bilan tilga olinadi.

XI asrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida esa inson fe'l-atvorini yoritish uchun tilga olingan. Amaldorlar och bo'ri deb ta'riflansa, lashkarboshida bo'riga o'xshagan mag'rurlik sifatleri kerakligini aytib o'tilgan [3]. Ernest Seton Tompson "Lobo" asarida bo'rini tabiat yaratgan mag'rur jonzot sifatida tasvirlagan bo'lsa, Jek Londinning "Hayotga muhabbat" asarida inson bilan olishgan yirtqich sifatida ko'ramiz [14]. Isajon Sulton hikoyasida esa ota tilidan bo'riga aqilli degan ta'rifni berib, u haqidagi hikoyani farzandiga so'zlab berishi bilan boshlaydi. Hayvonlar orasida shugina bir marta juft tanlab, umrining oxirigacha o'sha jufti bilan hayot kechiradi. O'z makonining chegaralarini erinmay belgilab chiqib, birona jonzot kirishiga yo'l qo'ymaydi. Bu parcha orqali yozuvchi bo'rini oila boshlig'i, oilasi uchun qayg'uradigan otalarga mengzatadi. Hikoyada qahramon ilk bor bolaligida, otasiga dalaga ovqat olib boryotib uchrashadi. Bo'ringa bolasini itning bolasi deb o'ylab unga qo'shib rosa o'ynaganini, nariroqda qoyaday qotib turgan ota bo'rini ko'rganini ham eslaydi. Haybatli bo'lsa-da turushida tahdid sezmagandligini otasiga aytib boradi. Qaysidir ma'noda mehrli ham deyishimiz mumkin. Bolalarning o'yinini zimdan kuzatib turgan mehribon otadek. Agar bo'ri haqiqatdan vahshiy hayvon bo'sa edi, inson bolasini farzandiga ozuqa qilar edi. Yillar o'tib keyinchalik qahramon o'tin olib qaytayotganida duch keladi. U ko'rganim bo'ringa nigohi o'z qudratiga ishongan, xotirjam nigoh edi, qarshimdagining nigohida esa tahdid sezilmoqda, shu mahal ancha naridan, to'qay ichkarisidan uvillagan boshqa bir ovoz eshitildi.

E, tushundim! Bo'rilar oila bo'lib yashaydilar. Uning ham oilasi bor-ku? Har holda oila Yashar, erkak bo'ri esa menina, ya'ni cho'l bag'rida kuymalanib o'tin to'plab yurgan odamning qiyofasidagi xatarni sezib, yo'l yoqasiga bola-chaqasini himoya qilgani chiqqanga o'xshaydi [n.ziyouz.com], degan hikoyachining fikrlaridan anglash mumkinki, ikki oilasi uchun kechasi kurashib harakat etyotgan otalar ko'rinishida. Faqat biri inson, ikkinchisi hayvon ko'rinishda, ammo maqsadlari oilani himoya qilishdir. Ko'rinib turganidek, hikoyada bo'ri insoniy sifatlar bilan tasvirlangan. Yozuvchining "Tuman" hikoyasida ham bo'ri obrazini tilga oladi, ammo qo'rquvni yuzaga keltirish, uni yengish uchun foydalangan. Hikoya tumanli kunda to'rt aka-ukaning yabonga, cheksiz dasht yerlarga o'tin terishga chiqishida sodir bo'lgan voqealar asosiga qurilganligi uchun ham tuman deb nomlangan. Bolalarning otalari erta olamdan o'tganligi bois yosh bo'lishiga qaramasdan oila yuki yelkasiga tushgan, shu bois sovuq qishda o'tin tergani dasht kezib yuribdi. Aslida, bu yoshdagi bolalar onalarining quchog'ida erkalanib, uyining to'rida joyi bo'lishi kerak. Afsuski, qish qattiq, uylar sovuq bo'lganligi uchun qalinroq, uzoqroq yonadigan o'tin izlab chiqishgan. Bolalarning kichigi juda yosh bo'lishiga qaramasdan, akalar o'rgansin, biz yonida bo'lmasak, o'zi yashash uchun kurashish kerak deb olib chiqqan. Shu bois ham ukasining bergan savoliga atayin shunday javob qaytaradi. Aka, chiyabo'rini? Bo'rini naq o'zginasi, yog'e qishda itlar ham shunaqa uvillaydi-ku? It boshqacha uvillaydi [n.ziyouz.com]. Shu savolni so'rgan mahal bola akalarini yo'qotib qo'yadi. Qo'rquvi kuchayganidan har bir narsa vahimali ko'rinaveradi.

Tumanda tovushlardan hayiqqanim rost. Dashtda rosa katta ilon bor deb eshitgandim, o'sha kelib qolsa-ya deb ham qo'rqdim. O'shanda yig'lab yubordim. Noma'lum vahshiylar barimizni yeb ketsa, onam sho'rlik nima qiladi, deb yig'ladim [n.ziyouz.com]. Ammo katta akaning maqsadi qo'rqitish ham emasdi. Quydagi aka nutqidan keltirilgan monolog akaning maqsadini oydinlashtiradi. Bilagi kuchga to'lsin, ko'ngli qattiq bo'lsin! Pishitish uchun hayot degan daryoga otvorish kerak. Hali bolaligi bor, ko'ngli bo'sh, ammo vaqti kelganida turmushning o'zi shafqatsiz qilib qo'yadi [n.ziyouz.com].

Hikoyada yovvoyi tabiatni jonli tasvirlash maqsadida, turli hayvonlar tilga olingan. Chiyabo'ri, echkamar, it, kuldirgich, eshshak, yumronlar, qush, ilon. Yozuvchi bu tasvir vositalari bilan jonli tabiatni yaratishda foydalangan bo'lib, hikoyani o'qir ekansiz ijodkor bu vositalardan unumli foydalanganligini guvohi bo'lamiz. Har ikki asarda ham yozuvchi qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda, bo'ri obrazidan foydalangan. "Bo'ri" hikoyasida otaning yurgidagi ko'milib yotgan erkinlik, ozodlik kabi xislarni yoritisa, "Tuman" hikoyasida ulg'ayib boryotgan yosh go'dakni hayotga tayyorlash, qiyinchiliklarga tayyor turish uchun tayyarlov vazifasida bo'rining ovoziidan foydalangan.

Isajon Sulton hikoyalarida zoonimlardan turli maqsadlarda foydalanadi, yuqorida aytib o'tganimizdek "Bo'ri", "Tuman" hikoyalarida bo'rinig sifatleri, obrazlarni shakllantirishda uyg'unlashtirilgan holda tasvirlangab bo'lsa, "Qismat" hikoyasidagi zoonimlarga majoziy mano yuklagan. Hikoyada otasiga qo'l ko'tarib qarg'ishga qolgan qahramonning baliqqa aylanishi va o'z farzandlarining muhtojlik sabab baliqni yeyishi keltirilgan. Hikoyaga kampir tilidan keltirilgan nutq oydinlik kiritadi. Ko'zim ko'rmay qolgan kundan beri rahmatlik otasi tushumga kiradi. "Ko'ryapsanmi, meni keldim. Baliq ye, baliq"-deydi o'shqirib. Rahmatli berahm odam edi. Ekin-tikin qilaman deb ko'p urindi, biroq ekan ko'chatlari chiqmasdi. Sababi otasiga qo'l ko'targan edi-da. Aksiga olib, o'sha kuni bayram edi, ichib olgan edi, otasiga o'shqirgan siltab-siltab tashlagan, ota yiqilganida qamish bo'yaning cho'pi ko'ziga kirib ketgan, shunda "qamishday qurigin iloy" deb qarg'agandi [n.ziyouz.com]. Shu kundan boshlab nima ish qilmasin chappasiga ketaveradi. Oila muhtojlikda qoladi. Nihoyat ekin bitmagach, qamishzordan qamish o'rardi. Oqpadar o'g'il shu tariqa olamdan o'tadi. Bu hikoya fantastik talqin etilgan bo'lib, adabiyotda dahshat kategoriasining bir ko'rinishi deya ayta olamiz. Ijodkor asarni yaratishda animistik qarashlardan foydalangan. O'z otasiga qo'l ko'targan farzandning ruhi baliqqa kirib qolgan. Qilmishi tufayli u dunyoda ham qiynalayotgan ruh ayolining tushiga baliq yegin deb bot-bot kiradi. Otasiga qo'l ko'targan farzand ikki dunyoda ham rohat ko'rmasligini yozuvchi animizm orqali hikoyaga singdirgan. Kichik o'g'il tilla balig'im deb, o'rtancha o'g'il Xudo yuborgan sirli deb baliqqa ta'rif beradi. O'rtancha o'g'ilning ko'rgan tushidan ayon bo'ladi, o'sha zovurda paydo bo'lgan baliq otasi, ya'ni otasining ruhi edi. Sel kelib o'tgan haftada sel guldurosli qabristonni, otamning qabri bilan qo'shib buzib ketgandi, otam shu baliqning ichiga kirib keldimikan, deb o'ylayman. Chunki ertasi kuni tushimda bir chol, otang baliq bo'lib oldingga keldi, akangga ayt, pishirib enangga bersin tuzaladi dermish. Ko'rgan tushim haqida akamga aytdim. Yarim soat o'tar-o'tmas tutib keldi [n.ziyouz.com]. Hikoyada insonlar olamdan o'tgach qandaydir jonzotning tanasiga kirib qaytib keladi, baliq, kapalak kabi jonzotlar shaklida degan fikr keltirilgan. Ko'pgina xalqlarda baliq yerosti suvlariga bog'liq ruhlar elchisi sifatida qaralgan Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasida ham baliq diydor ramzi sifatida keltirilgan bo'lsa, bu hikoyada insonning ruhi shu baliqqa joylashgan degan qarash bor. O'z otasiga qo'l ko'targan oqpadar farzandning doim boshini oqpadar degan so'zni aytib qush har kun cho'qishi, qabrini sel olib ketib, ruhi baliqqa aylanishi, natijada baliq o'z farzandlari tomonidan olovda qovrilishi ramziy ma'noni ochib berishga xizmat qilgan.

Dinimizda ota doim ulug'lanadi. Yozuvchining yana bir qancha asarlarida rivoyatga xos badiiy tasvirdan, ramziy timsollardan foydalanilgan. "Ot yoli, somon parchasi va toshbaqa bolasi" hikoyasida ham ot – murod, toshbaqa – donishmandlik, somon parchasi – mehnatni

ifodalovchi detallar sifatida keltirilgan. Hikoyada nafsga qul bo'lmashlik, boylik ilinjida yo'ldan adashmaslik kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Isajon Sultonning ayrim asarlari totemistik unsurlar bilan boyitilgan bo'lsa, ayrim asarlarida animistik qarashlar ustunlik qiladi. Bu vositalar asarning badiiy estetik funksiyasini ochib berishga xizmat qilgan. Yozuvchi ham modern ham an'anaviy yo'nalishda ijod etayotgan, bugungi kundagi o'z yo'nalishiga ega ijodkorlarimizdan biridir. Ijodkor asar yaratishda turlicha yondashadi, qahramon tanlash va uning hayotini yoritishda turli detallardan foydalanishi bilan ahamiyatlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ezop. Masallar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
2. Nosriddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.
3. Yusuf xos Hojib. “Qutadg'u bilig”. – Toshkent: “G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa yui”, 2018.
4. Navoiy A. Lison ut-tayr. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.
5. Gulhaniy. Zarbulmasal. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2019.
6. Oruell Jorj. Molxona. – Toshkent: “Nihol”, 2023.
7. Xolmirzayev Sh. Hikoyalar to'plami. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1971.
8. Said Ahmad. Qorako'z Majnun. – Toshkent: “O'zbekiston NMIU”, 2001.
9. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2019.
10. Isajon Sulton. Hikoyalar. – Toshkent: “G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa yui”, 2017.
11. Jo'rayeva Surayyo Tolibjon qizi, & Yuldosheva Saodat Azizovna. (2025). Isajon Sulton hikoyalarida novatorlik . Ustozlar Uchun, 1(1), 478–481. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ustozlar/article/view/113091>
12. Azizovna, Y.S. Study of folktale in literature and its relation to the epic genre. Central European. [https://api.scienceweb.uz/storage/publication\\_files/7250/19705/65b7e8e0c2065\\_\\_\\_Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065___Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf)
13. Yuldosheva Saodat Azizovna. (2025). Uzlaksiz ta'lim bosqichlarida uzviylik masalasi (“Adabiyot” fani o'quv dasturi misolida) . Ustozlar Uchun, 1(1), 761–765. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ustozlar/article/view/113166>
14. Azizovna, Y. S. On the Development of Expressive Learning Skills. International Journal on. <https://www.journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444>
15. Azizovna, Y. S. Cognitive Of Students In Language Education Developing Skills. (2021). Journal NX - междисциплинарный рецензируемый журнал , 514-516. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/2982>
16. Azizovna, Y. S. Formation Of Sense Of Respect In Students. JournalNX, 1026-1028. <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/26667>
- Internet saytlar
17. <https://n.ziyouz.com>
18. <https://n.ziyouz.com>
19. <https://oyina.uz>